



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION FAOLIYATNING MOHIYATI VA
UNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI**

Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Qo'qon DU Pedagogika kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

zarnigorxonmeliqoziyeva@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-4582-7204>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsiya va innovatsion faoliyatning ta'lim tizimidagi o'rni, ularning shakllanish jarayoni hamda zamonaviy pedagogik amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif tomonidan innovatsiyaning ijtimoiy-madaniy, texnologik va boshqaruv omillari bilan o'zaro bog'liqligi yoritilib, ta'lim jarayonida yangilik kiritishning shart-sharoitlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada innovatsion faoliyatning ijtimoiy tizimga ta'siri, o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish masalalari ham ilmiy asosda yondashilgan. Natijada, innovatsion ta'limni rivojlantirishning samarali yo'nalishlari va shartlari aniqlanib, pedagogik tizimda innovatsiyalarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, innovatsion faoliyat, ta'lim tizimi, pedagogik yangilik, kreativlik, ta'lim samaradorligi, pedagogik innovatsiya, raqamli ta'lim, ijtimoiy tizim, o'qituvchi kompetensiyasi.*

Innovatsiya atamasi inglizcha - "innovation" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilganda —yangiliklarni joriy etish ma'nosini anglatadi. Shunday qilib innovatsiyaning markaziy muhim o'rni yangilanishga tegishlidir. Bunday yangilanish qachon yuz beradi, agarda insonlar qaror qabul qilish usullarini o'zgartirib, standart usullardan voz kechib, mavjud norma va qonuniyatlar doirasidan tashqarida qaror tanlovini bajara olishni o'rganishsa, u holda amalga oshishi mumkin. Innovatsiyani yangi ilmiy-texnikaviy, tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish yoki boshqa yechim va qarorlarni amaliyotda birinchi bo'lib joriy etish sifatida ta'riflash mumkin. Ta'kidlash lozimki—innovatsiyalarni tushunish murakkab bo'lgan umumiy tushunchalar sirasiga kiradi, uning mazmunini to'laqonli ochib berish uchun turli usul va yondashuvlar talab etiladi. Bir tomondan innovatsiyalarni —o'zgarish funksiyasi sifatida qarar ekanmiz, aytish mumkinki, umum falsafiy ma'noda innovatsiya – bu biror-bir jarayon yoki majmuaning holatini o'zgartirishdir. Shu ma'noda innovatsiya rivojlanishning o'ziga xos kesimi hisoblanadi deyishimiz mumkin bo'ladi. Bu o'rinda innovatsiyalarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yuz beruvchi jarayon sifatida talqin qilishimiz o'rinli hisoblanadi, zero jamiyat hayotining barcha sohalarida innovatsion rivojlanish o'ziga xos tarzda kechadi. Boshqa bir tomondan esa, innovatsion jarayon sifatida yakuniy natija innovatsiya (innovatsion mahsulot) tushunchasi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Y.Shumpeter innovatsiya atamasini ilmiy muomalaga kiritib, uning o'ziga xos jihatlarini yoritib bergani holda, u o'zining —Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi asarida o'zgarishlarning beshta tipik ko'rinishini ajratib ko'rsatadi:

1. Iste'molchi hali tanish bo'lmagan yangi mahsulotni yoki avvaldan mavjud bo'lgan mahsulot sifatining yangi darajasini joriy qilish.

2. Ilmiy kashfiyotlarga asoslangan yangi ishlab chiqarish usullarini, mahsulot yoki xomashyoning tijorat maqsadlarida foydalanishning yangi usullarini joriy etish.

3. Bozorning avvaldan mavjud yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar, muayyan mamlakatning ishlab chiqarish sohasi yoki tarmog'iga kirib borish orqali yangi bozor ochish.

4. Mavjud yoki mavjud emasligi yoki avvaldan yaratilganligiga qaramasdan xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarning yangi manbalarini qo'lga kiritish.

5. Biror tarmoq yoki sohada iqtisodiy faoliyatni tashqil etish usul va vositalarini o'zgartirish

Ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nafaqat ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyalarni sifat jihatdan o'zgartirish bilan, balki tadbirkorning ongli ilmiy faoliyati natijasi hisoblanuvchi ishlab chiqarishni tashqil etish usullarining o'zgartirilishi bilan ham bog'liq. Innovatsiya—bu tadbirkor tomonidan amalga oshiriluvchi ishlab chiqarish omillari va shart-sharoitlarining yangicha birikmasi (kombinatsiyasi)dir. Shunday qilib, iqtisodiy faoliyat natijasi hisoblanuvchi innovatsion mahsulotlar va innovatsion jarayonlar bizning o'rganishimiz obyekti hisoblanadi. Innovatsion faollik yoki innovatsiyalarni baholashni ikki: korxonada va davlat darajasida amalga oshiriladi. 1980-1990-yillar davomida innovatsiyalarni tahlil qiluvchi analitik modellarni ishlab chiqish va ularni rivojlantirish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. 1992-yilda amalga oshirilgan ishlar asosida sanoatda amalga oshayotgan mahsulotli, jarayonli va texnologik innovatsiyalarga yo'naltirilgan Oslo yo'riqnomasining birinchi nashri yaratildi. 1997-yilda xizmat ko'rsatish sektorini ham o'z ichiga olgan —Oslo yo'riqnomasining ikkinchi nashri chop etildi. Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik tashkiloti va Yevrostat hamkorligida 2005-yilning oktabr oyida nashr qilingan —Oslo yo'riqnomasining uchinchi nashri marketing va ishlab chiqarishni tashkil sohasidagi innovatsiyalarni o'z ichiga qamrab olgan holda, texnologik bo'lmagan innovatsiyalarga ham atroflicha e'tibor qarata boshladi. So'nggi 40 yil mobaynida ilmiy va texnologik ko'rsatkichlar bo'yicha milliy ekspertlar guruhi mutaxassisarlari —Fraskati oilasi deb nomlangan bir qator hujjatlar to'plamini ishlab chiqdilar. Ta'kidlash lozimki, innovatsiyalarning yangilik (novatsiya) dan asosiy farqlovchi jihati shundaki, innovatsiyalar yangiliklarni birinchilardan b'olib amaliyotga joriy etilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, innovatsiya yangilik (novatsiya)dan shunisi bilan farq qiladiki, yangi mahsulot dastlab bozorga kiradi, s'ongra bozor tomonidan qabul qilinsagina u keyinchalik tijorat qiymatiga ega bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, innovatsiya (yangiliklarni joriy qilish) bu yangilikni amalda qo'llashni



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



anglatadi. Yaratilgan yangi mahsulot, yangi texnologiya yoki mehnatni tashkil etish va boshqarish borasida ishlab chiqilgan yangicha yondashuvlar amalda o'z ifodasini topsagina, bu yangiliklar innovatsiyalarga aylana oladi, demakki, barcha yangilik (innovatsiya) lar ham innovatsiya bo'la olmaydi. Birinchidan, ishlab chiqarishga joriy etilayotgan yoki bozorga olib chiqilayotgan barcha mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar yangi (yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan) bo'lishi lozim. Ikkinchidan, yaratilgan mahsulot ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste'mol ehtiyojlarini qondira olishi va ayni paytda kiritilgan yangilik aniq bir tovar, xizmat yoki jarayonda o'z aksini topgan bo'lishi talab etiladi. Uchinchidan, yaratilgan mahsulot bozor talabiga mos kelishi, tijorat jihatdan o'zini oqlashi va pirovardida ishlab chiqaruvchilar talabini qondirish kerak. Innovatsion faoliyat deyilganda, g'oyalar (odatda ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalari yoki boshqa ilmiy va texnologik yutuqlar)ni bozorga tatbiq etiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga aylantirish, amalda foydalanilayotgan texnologik jarayonlarni yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar bilan almashtirish va shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga yangicha yondashuv bilan bog'liq faoliyat tushuniladi. Mahsuldor innovatsiyalar texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Texnologik jihatdan yangi mahsulot (radikal mahsuldor innovatsiya) – bu texnologik tavsiflari (funktional xususiyatlari, konstruktiv yechimlari, shuningdek, foydalanilgan materiallar va tarkibiy qismlar) yoki maqsadli ishlatilishi jihatidan ilgari ishlab chiqarilgan shu kabi mahsulotlardan tubdan yangi yoki sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovatsiyalar mutlaqo yangi texnologiyalarga yoki yangi va mavjud texnologiyalardan amalda birgalikda foydalanishga asoslangan holda bo'lishi mumkin. Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot– bu mavjud mahsulotga nisbatan sifat yoki qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha bir necha marotaba samarali materiallar va qo'shimchalardan foydalanish hisobiga qisman yoki qator texnik tizimlari takomillashgan mahsulotdir. Jarayonli innovatsiyalar texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari (usullari) ni ishlab chiqishni va joriy etishni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullari, shuningdek, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning natijalari, yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin. Ushbu innovatsiyalardan odatda korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalaniladi. Tarixiy yondashuv asosida innovatsiyalar nazariyasining shakllanish bosqichlari 1-bosqich XIX asrning oxiri – XX asrning 40-yillari 2- bosqich XX asrning 40-70-yillari Innovatsiyalar nazariyasi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va rivojlanish mantiqi borasidagi umumiy tasavvurlar bizga tahlilning keyingi bosqichiga – ya'ni —Innovatsion iqtisodiyot kursi o'quv qo'llanmasida belgilangan maqsadlar nuqtayi nazaridan innovatsion rivojlanish nazariyalari va konsepsiyalarini maqsadli ravishda tadqiq etishga o'tish imkonini beradi. Shunday qilib, o'quv qo'llanmaning har bir bo'limi



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



uchun eng muhim innovatsion nazariya va konsepsiyalarning yaxlitligi sifatida mos yondashuvlar ishlab chiqiladi. Tabiiyki, bu o‘rinda faqat asosiy konsepsiyalar keltirilgan xolos. —Innovatsion iqtisodiyot o‘quv kursini o‘rganish jarayonida har bir mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun zarur bo‘lgan boshqa yondashuv va nazariyalardan ham keng foydalaniladi.

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta‘lim tizimiga ham bog‘liq ekanligini hisobga olish kerak. Shu bilan birga intellektual salohiyatning o‘ssishi, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta‘lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o‘z ta‘sirini o‘tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohasini o‘ssishiga ham sezilarli darajada ta‘sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta‘limdagi strategik yo‘nalishlardan biri ta‘lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti. Ta‘lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta‘lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo‘shilishini taqozo etmoqda, o‘zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko‘rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o‘zlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda o‘ta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta‘lim muassasalarini yashash sharti, kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo‘lib ham xizmat qiladi. Hayot ta‘lim muassasalari oldiga yangi, mumkin bo‘lmagandek tuyulgan vazifalarni, ya‘ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni talab qilib qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta‘lim tizimidagi an‘anaviy va ommaviy ko‘rinishdagi ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘rniga ta‘lim muassasalari rivojlanishida o‘ziga xos yangilik bo‘lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in-“lik”, novus-“yangi”) yangilik kiritish, yangilik degan ma‘noni anglatadi. “Innovatsion ta‘lim” deganda odatda o‘quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta‘lim tizimida innovatsiya o‘zgartirish bilan bevosita bog‘liq. Bunday o‘zgartirishlar ta‘lim tizimining: maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga; pedagogik faoliyatdagi o‘ziga xoslik va o‘quv-bilish jarayonini tashkil etishga; ta‘lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga; o‘quv-metodik ta‘minotiga; tarbiyaviy ishlar tizimiga; o‘quv reja va o‘quv dasturlariga; o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq. Yangilik xillari (tiplar) maktab tizimida turlicha asoslarga ko‘ra guruhlanadi: Birinchi klassifikatsiya (guruh) yangiliklarni kiritish, maktab tizimida sodir bo‘ladigan pedagogik jarayonga aloqadorligi bilan asoslanadi. Ushbu jarayonni tushunishga tayanib, quyidagi ko‘rinishdagi yangilik xillarini ajratish mumkin: ta‘lim maqsadi va mazmuniga; pedagogik jarayon metodikasi, vazifalari, usullari, texnologiyalarga; ta‘lim va tarbiyani tashkil etish shakllari va vositalari; rahbariyat, pedagog va o‘quvchilar faoliyatiga. Ta‘lim tizimiga ikkinchi klassifikatsiya (guruh)



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



yangilikni kiritish masshtabi (hajmi) belgisiga asoslanadi. Bu yerda quyidagi o'zgarishlarni ajratish mumkin: - bir-birlari bilan bog'liq bo'lmagan lokal va alohida (bir tomonlamalilik); - kompleks, o'zaro bir-biri bilan bog'liq; - butun maktab tizimini qamrab oluvchi, tizimli. Uchinchi klassifikatsiya (guruh) innovatsion imkoniyatlarga qarab amalga oshiriladi. Bu holatda e'tiborga olinadi: ta'lim dasturlari, o'quv rejalar, tuzilmalarni takomillashtirish, ixtirochilik, ko'rinishlarni o'zgartirish bilan bog'liq ma'lum va qabul qilinganlarni modifikatsiyalash; kombinatorlikka (o'zgartirishlar) xos yangilik kiritish; radikal o'zgartirishlar. Yangilik kiritishning to'rtinchi klassifikatsiyasi (guruh) oldingilariga nisbatan belgilariga asoslanib, guruhlanadi. Bunday yondashuvda yangilik o'rin almashuvchi, bekor qilinuvchi yoki ochib beruvchilarga qarab belgilanadi. Bu holatda maktab tizimida yangilanish manbai sifatida: mamlakat, region, shahar, tumanning ehtiyoji sifatidagi ijtimoiy buyurtmasi; ijtimoiy buyurtmani region va viloyat ahamiyatiga molik qonun va hujjatlarda aks etishi; inson to'g'risidagi kompleks fanga erishish, ilg'or pedagogik tajriba; xato va kamchiliklarni sinashda rahbar va pedagoglarning ijodkorligi; tajriba-sinov ishlari; chet el tajribalari. Fanni va innovatsiyani kelajakda rivojlantirish strategiyasida "innovatsion insonni" yaratish, ya'ni ishlashidan qat'iy nazar u innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo'lishi kerak. Bugungi kunda zamonaviy innovatsion yaroqlilik yuzaga kelmoqda. Hozirgi milliy loyihalar saytida "innovatsion ta'lim" iborasi paydo bo'lmoqda va unda aytilishicha innovatsion ta'lim o'qitishni yangi bilimlarni yaratish jarayonida amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa bugungi kunda mavjud "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" tushunchasi bilan yangi "innovatsion ta'lim" tushunchalarini bir-biridan ajratishni talab etmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim texnologiyalari uchun innovatorlar faqat pedagoglar edi va ularning innovatsiyalari o'quvchilarda zaruriy sifatlarni shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion tafakkur va qobiliyatni innovatsion faoliyatiga yo'naltirishga e'tibor qaratilmagan. Bildirilgan fikrlar "innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "innovatsion ta'lim" tushunchalarini quyidagi tarzda ajratib, alohida qarab chiqishni talab etadi: innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlari – bu barcha ta'lim texnologiyalari, yaratuvchi va ularni rivojlantiruvchi pedagog innovatsion faoliyatining natijasi hisoblanadi. innovatsion ta'lim – bu shunday innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlariki, unda pedagog innovatsion faoliyati natijasi bo'lib, o'qitilayotganlar innovatsion g'oyalarini yaratuvchisi (generatsiya) xisoblanadi; ishlab chiqarishning monoinnovatsionligi (mutaxassislar innovatsiyasi) ta'limning monoinnovatsion - (pedagog innovatsiyasi) emasligiga to'g'ri keladi, uning innovatsiyaligi, pedagog innovatsiyaligi, ularning oqibati, o'qitilayotganlarning innovatsiyasidir. Bu o'rinda masalaning dolzarbligi mavjud "mono"innovatsion ta'lim texnologiyalarini "bi"-innovatsion holatigacha rivojlantirishdan iborat. Bular bir qator chet el o'quvchilari misolida ular tomonidan yaratilgan tajribalar, ixtirolar misolida o'z amaliy isboti bilan tasdiqlangan. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va egallagan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim. Tabiiy fanlar ta'limining ayrim mavzulari yuzasidan zamonaviy didaktik o'yin texnologiyalarining interfaol usullari yordamida dars jarayoni loyihasi ishlab chiqish ko'nikmalari shakllantirildi. Pedagogik amaliyot davomida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari sinovdan o'tkazildi. O'quvchilarda biologik, ekologik, geografik, kimyoviy va gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun hozirgi zamon pedagogi albatta zamonaviy dars usullari, fan yangiliklari bilan tanishgan bo'lishi kerak. Yosh avlodni jismoniy, gigiyenik, ekologik va ruhiy sog'lom bo'lishi uchun tabiiy fanlarni mazmunli o'qitilishi juda muhimdir.

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lim tizimiga ham bog'liq ekanligini hisobga olish kerak. Shu bilan birga intellektual salohiyatning o'sishi, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o'sishiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti. Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda o'ta dolzarbligini bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta'lim muassasalarini yashash sharti, kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi. Hayot ta'lim muassasalari oldiga yangi, mumkin bo'lmagandek tuyulgan vazifalarni, ya'ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni talab qilib qo'yimoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in-"lik", novus-"yangi") yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi. "Innovatsion ta'lim" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining: maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



boshqaruv tizimiga; pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga; ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga; o'quv-metodik ta'minotiga; tarbiyaviy ishlar tizimiga; o'quv reja va o'quv dasturlariga; o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. Yangilik xillari (tiplar) maktab tizimida turlicha asoslarga ko'ra guruhlanadi: Birinchi klassifikatsiya (guruh) yangiliklarni kiritish, maktab tizimida sodir bo'ladigan pedagogik jarayonga aloqadorligi bilan asoslanadi. Ushbu jarayonni tushunishga tayanib, quyidagi ko'rinishdagi yangilik xillarini ajratish mumkin: ta'lim maqsadi va mazmuniga; pedagogik jarayon metodikasi, vazifalari, usullari, texnologiyalarga; ta'lim va tarbiyani tashkil etish shakllari va vositalari; rahbariyat, pedagog va o'quvchilar faoliyatiga. Ta'lim tizimiga ikkinchi klassifikatsiya (guruh) yangilikni kiritish masshtabi (hajmi) belgisiga asoslanadi. Bu yerda quyidagi o'zgarishlarni ajratish mumkin: - bir-birlari bilan bog'liq bo'lmagan lokal va alohida (bir tomonlamalilik); - kompleks, o'zaro bir-biri bilan bog'liq; - butun maktab tizimini qamrab oluvchi, tizimli. Uchinchi klassifikatsiya (guruh) innovatsion imkoniyatlarga qarab amalga oshiriladi. Bu holatda e'tiborga olinadi: ta'lim dasturlari, o'quv rejalar, tuzilmalarni takomillashtirish, ixtirochilik, ko'rinishlarni o'zgartirish bilan bog'liq ma'lum va qabul qilinganlarni modifikatsiyalash; kombinatorlikka (o'zgartirishlar) xos yangilik kiritish; radikal o'zgartirishlar. Yangilik kiritishning to'rtinchi klassifikatsiyasi (guruh) oldingilariga nisbatan belgilariga asoslanib, guruhlanadi. Bunday yondashuvda yangilik o'rin almashuvchi, bekor qilinuvchi yoki ochib beruvchilarga qarab belgilanadi. Bu holatda maktab tizimida yangilanish manbai sifatida: mamlakat, region, shahar, tumanning ehtiyoji sifatidagi ijtimoiy buyurtmasi; ijtimoiy buyurtmani region va viloyat ahamiyatiga molik qonun va hujjatlarda aks etishi; inson to'g'risidagi kompleks fanga erishish, ilg'or pedagogik tajriba; xato va kamchiliklarni sinashda rahbar va pedagoglarning ijodkorligi; tajriba-sinov ishlari; chet el tajribalari. Fanni va innovatsiyani kelajakda rivojlantirish strategiyasida "innovatsion insonni" yaratish, ya'ni ishlashidan qat'iy nazar u innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo'lishi kerak. Bugungi kunda zamonaviy innovatsion yaroqlilik yuzaga kelmoqda. Hozirgi milliy loyihalar saytida "innovatsion ta'lim" iborasi paydo bo'lmoqda va unda aytilishicha innovatsion ta'lim o'qitishni yangi bilimlarni yaratish jarayonida amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa bugungi kunda mavjud "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" tushunchasi bilan yangi "innovatsion ta'lim" tushunchalarini bir-biridan ajratishni talab etmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim texnologiyalari uchun innovatorlar faqat pedagoglar edi va ularning innovatsiyalari o'quvchilarda zaruriy sifatlarni shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion tafakkur va qobiliyatni innovatsion faoliyatiga yo'naltirishga e'tibor qaratilmagan. Bildirilgan fikrlar "innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "innovatsion ta'lim" tushunchalarini quyidagi tarzda ajratib, alohida qarab chiqishni talab etadi: innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlari – bu barcha ta'lim texnologiyalari, yaratuvchi va ularni rivojlantiruvchi pedagog innovatsion faoliyatining natijasi



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



hisoblanadi. innovatsion ta'lim – bu shunday innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlariki, unda pedagog innovatsion faoliyati natijasi bo'lib, o'qitilayotganlar innovatsion g'oyalari yaratuvchisi (generatsiya) xisoblanadi; ishlab chiqarishning monoinnovatsionligi (mutaxassislar innovatsiyasi) ta'limning monoinnovatsion - (pedagog innovatsiyasi) emasligiga to'g'ri keladi, uning innovatsiyaligi, pedagog innovatsiyaligi, ularning oqibati, o'qitilayotganlarning innovatsiyasidir. Bu o'rinda masalaning dolzarbligi mavjud “mono”innovatsion ta'lim texnologiyalarini “bi”-innovatsion holatigacha rivojlantirishdan iborat. Bular bir qator chet el o'quvchilari misolida ular tomonidan yaratilgan tajribalar, ixtirolar misolida o'z amaliy isboti bilan tasdiqlangan. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va egallagan bilimlarini o'quv–tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim. Tabiiy fanlar ta'limining ayrim mavzulari yuzasidan zamonaviy didaktik o'yin texnologiyalarining interfaol usullari yordamida dars jarayoni loyihasi ishlab chiqish ko'nikmalari shakillantirildi. Pedagogik amaliyot davomida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari sinovdan o'tkazildi. O'quvchilarda biologik, ekologik, geografik, kimyoviy va gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun hozirgi zamon pedagogi albatta zamonaviy dars usullari, fan yangiliklari bilan tanishgan bo'lishi kerak. Yosh avlodni jismoniy, gigiyenik, ekologik va ruhiy sog'lom bo'lishi uchun tabiiy fanlarni mazmunli o'qitilishi juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Филонович, С. Р. *Инновационный менеджмент: Учебник.* — Москва: Дело, 2003. — 352 с.
2. Шаповалов, В. А. *Инновационные процессы в образовании.* — Москва: Академия, 2015. — 240 с.
3. То'хтахо'jayev, М., Холиқов, А. *Innovatsion pedagogika: nazariya va amaliyot.* — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2019. — 214 b.
4. Rogers, E. M. *Diffusion of Innovations.* — New York: Free Press, 2003. — 551 p.
5. Xoliqova, N. *Pedagogik tizimlarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy asoslari.* — Toshkent: TDPU, 2020. — 178 b.
6. Хуторской, А. В. *Современные дидактические системы и инновационные технологии обучения.* — Москва: Академия, 2005. — 320 с.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



7. OECD. *Innovating Education and Educating for Innovation: The Power of Digital Technologies and Skills*. — Paris: OECD Publishing, 2016. — 210 p.
8. Jumayev, M. *Ta'lim tizimida raqamli innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari*. // *Pedagogik ta'lim jurnali*. — 2021. — №3. — B. 45–52.
9. Монахов, В. М. *Инновационные технологии в образовании*. — Санкт-Петербург: Питер, 2018. — 256 с.
10. Karimov, A. *Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodik asoslari*. — Qo'qon: KDU nashriyoti, 2022. — 190 b.